

O'ZBEKISTON

AKT yangiliklari



Pedagogika institutlari ARM'ning foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni ta'minlash holati va zamonaviy rivojlantirish tendensiyalari

8-avgust kuni O'zbekiston Milliy kutubxonasida «Pedagogika institutlari ARM'ning foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni ta'minlash holati va zamonaviy rivojlantirish tendensiyalari» mavzusida seminar-trening bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan hamkorlikda «Pedagogika institutlari Axborot-resurs markazlarining foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni ta'minlash holati va zamonaviy rivojlantirish tendensiyalari» mavzusida seminar-trening tashkil qilindi. Seminarda respublikada faoliyat yuritayotgan pedagogika institutlarining axborot-resurs markazlari mutaxassislari ishtirok etdilar.

O'quv seminarida Milliy kutubxonaning bir qator mutaxassislari «Hududlarda namunaviy axborot-kutubxona muassasalarini tashkil etish masalalari», «UZMARC kommunikativ mashina o'qiydigan format kataloglari» yagona talablari, «Ma'lumotlarni

masofaga yetkazib berish va multimedia resurslar bazasi», «Oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarini davlat bibliografiyasini yuritishdagi o'rni» va «Axborot-kutubxona muassasalaridagi axborot-kutubxona resurslarini yagona hisobga olish tizimi» kabi dolzarb mavzulardagi ma'ruzalar bilan qatnashdilar. Seminar tinglovchilari o'rtasida bahs-munozarali va qizg'in tarzda o'tdi. Tadbir yakunida tinglovchi mutaxassislarga Milliy kutubxona tomonidan esdalik sovg'alari taqdim etildi va kutubxona bo'ylab ekskursiya tashkil qilindi.

Manba: www.natlib.uz

99,4 foiz soliq va moliyaviy hisobotlar elektron ko'rinishda topshirildi

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan tizimli ishlar natijasida davlat soliq xizmati organlariga hisobotlarni elektron ko'rinishda yuborish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar eng asosiy interaktiv davlat xizmatlaridan biriga aylandi.

Mazkur interaktiv davlat xizmatidan foydalanuvchilar ko'nikmasini oshirish, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning rahbarlarini o'qitishga alohida e'tibor qaratiilib, hisobot davrida barcha tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalarida 97 mingta rahbar

va buxgalterlarning malakasi oshirildi, 260 marotaba ommaviy axborot vositalari orqali tematik chiqishlar qilindi. Respublika bo'yicha soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi 548ta axborot-resurs shaxobchalari va xizmat ko'rsatuvchi punktlarning tashkil etilishi va amalga oshirilgan tizimli tadbirlar natijasida 2014-yilning 2-chorak yakuni bo'yicha soliq va moliyaviy hisobotlarni elektron ko'rinishda taqdim etgan korxonalar salmog'i 99,4 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 foizga oshishiga erishildi.

Manba: www.soliq.uz

Ucell kompaniyasi Mustaqillik kuniga bag'islab tashkil etilgan Paralimpiya Kubogini qo'llab-quvvatladi

Ucell hamkorligida 2014-yilning 15-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuniga bag'islangan bayramona Paralimpiya Kubogi tashkil etildi. O'zbekiston Milliy Paralimpiya Uyushmasi yosh paralimpiya-sportchilarini qo'llab-quvvatlash hamda jamoat e'tiborini O'zbekistonda paralimpiya harakatini rivojlantirishga qaratish maqsadida bowling bo'yicha turnir tashkil etildi. Tadbirda 60 nafarga yaqin ishtirokchilar qatnashib, ular ichida mashhur sportchilar, diplomatik korpus vakillari hamda Ucell Kompaniyasi xodimlari ishtirok etdilar.

